

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/28.02.2022.I.18.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

BERDIKULOVA IRODA RAYIMKULOVNA

**TURIZM BOZORINI DIVERSIFIKATSIYA QILISHNING TASHKILIY-
IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH
(Samarqand viloyati misolida)**

08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
in economic sciences**

Berdikulova Iroda Raimkulovna

Turizm bozorini diversifikatsiya qilishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish..... 3

Бердикулова Ирода Райимкуловна

Совершенствование организационно-экономических механизмов диверсификации туристического рынка..... 23

Berdikulova Iroda Raimkulovna

Improving the organizational and economic mechanisms for diversification of the tourist market..... 43

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works 47

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/28.02.2022.I.18.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

BERDIKULOVA IRODA RAYIMKULOVNA

**TURIZM BOZORINI DIVERSIFIKATSIYA QILISHNING TASHKILIY-
IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH
(Samarqand viloyati misolida)**

08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2018.3.PhD/Iqt679 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand iqtisodiyot va servis institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.sies.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Pardayev Mamayunus Qarshibayevich iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Tuxliyev Iskandar Suyunovich iqtisodiyot fanlari doktori, professor Aliyeva Maxbuba Tuychiyevna iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand iqtisodiyot va servis instituti huzuridagi PhD.03/28.02.2022.I.18.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "_____" soat ____dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 9-uy. Tel.: (998 66) 233-38-72, Faks:(998 66) 231-12-53; e-mail: sies_info@edu.uz.

Dissertatsiya ishi bilan Samarqand iqtisodiyot va servis institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin ("_____" raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 9-uy. Tel.: (998 66) 233-38-72, Faks:(998 66) 231-12-53; e-mail: sies_info@edu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "_____" kuni tarqatildi.
(2024-yil "_____" dagi № _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

M.E.Po'latov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

Sh.O.Kuvandikov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash ilmiy kotibi, i.f.d., dotsent

M.M.Muxammedov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi bir martalik ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda turizm sohasi jadal rivojlanishi bilan bir qatorda yangi ish o‘rinlarini yaratish, bog‘liq sohalar rivojlanishiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatishi va iqtisodiyotning ijtimoiylashuvida muhim o‘rin tutishi kabi xususiyatlariga ko‘ra bugungi kunda drayver tarmoq sifatida muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. “Xalqaro turistlar oqimi yildan-yilga o‘sib borib, o‘shish sur‘ati o‘rta hisobda yiliga 3,3 foizni tashkil qilmoqda. Oqibatda xalqaro turistlar soni 2030 yilgacha 1,8 mlrd. kishiga yetishi bashorat qilinmoqda”¹. Bugungi kunda jahonda sohani jadal rivojlantirishda turizm bozorini diversifikatsiya qilishning samarali tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini joriy qilish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon turizm sohasini samarali rivojlantirish va turistik xizmatlar sifatini oshirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan tadqiqotlar tarkibida turizm bozorini diversifikatsiya qilishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish yo‘nalishidagi tadqiqotlarga ustuvor darajada qaralmoqda. Bu borada turizm sohasini innovatsion texnologiyalarga ko‘ra boshqarish samaradorligini oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratishda soha imkoniyatlarini kengaytirish, diversifikatsiya jarayonini mintaqaviy xususiyatlarga ko‘ra amalga oshirish, sohani iqtisodiyotning eng samarali tarmoqlaridan biri sifatida rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish kabi mavzulardagi ilmiy tadqiqotlarga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Bugungi kunda O‘zbekistonda turizm sohasini jadal sur‘atlarda rivojlanadigan drayver tarmog‘iga aylantirish, sohani sifat jihatdan rivojlantirishning yangi bosqichiga olib chiqish, turistik salohiyatdan samarali foydalanish, turistik xizmatlar tarkibini takomillashtirish kabi yo‘nalishlarda islohotlar olib borilmoqda. Mamlakatimizda “...xorijiy turistlar sonini 15 millionga yetkazish, ichki sayyohlar sonini 25 millionga, ziyorat turizmi bo‘yicha keladigan turistlar sonini 3 million nafarga oshirish”² kabi vazifalar belgilangan. Bu borada turizm xizmatlari samaradorligini o‘zaro funksional bog‘liq bo‘lgan omillar ta‘siriga ko‘ra oshirish, mintaqalarda turizm sohasini rivojlantirish barobarida ko‘rsatiladigan xizmatlardan tushadigan tushumlar hajmini oshirish va tarkibini takomillashtirish, sohani rivojlantirishning maqsadli prognoz ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish kabi yo‘nalishdagi tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirish maqsadga muvofiq.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 2 dekabrda PF-4861-son «O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2018 yil 3 fevraldagi PF-5326-son «O‘zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida», 2019 yil 5 yanvardagi PF-5611-son “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021 yil 9 fevraldagi PF-6165-son “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-

¹UNWTO.Tourism Highlights. 2017, Edition.

² 2023 yil 11 sentyabrda qabul qilingan “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi PF-158-sonli Farmoni 58-maqсад.

tadbirlari to'g'risida", 2021 yil 6 apreldagi PF-6199-son "Turizm, sport va madaniy meros sohaslarida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2022 yil 18 fevralda PF-75-son "Turizm, madaniy meros va sport sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida", 2018 yil 6 fevraldagi PQ-3509-son "Kirish turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018 yil 7 fevraldagi PQ-3514-son «Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida», 2022 yil 18 fevraldagi PQ-135-son "Turizm va madaniy meros vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-ahloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Turizm bozorini diversifikatsiya qilishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish jahon va mamlakatimiz olimlari diqqat markazida bo'lib kelgan. Jumladan, mazkur muammoning ilmiy-nazariy va metodologik hamda amaliy muammolari xorijlik olimlardan A.P.Durovich, F.Kotler, Dj.Bouen, L.Duaer, P.Forsayt, A.Papateodoru, Dj.Meykens, Dj.Uoker, A.E.Saak, L.F.Xodorkov, A.S.Kuskov, Yu.A. Djaladyan, Yu.F.Volkov, A.Braymer, A.D.Chudnovskiy, N.M.Kuldoshina, A.L.Lesnik, I.P.Masiskiy, S.A.Bstrov, A.V.Chernishev, M.V.Yakimenko, V.G.Fedsov, M.B.Birjakov, V.I.Nikiforov, A.D.Kaurova, M.G.Voronsova, A.B.Kosolapov, V.A.Kvartalnov, Dj.A.Michelli, L.P.Shmatko kabilar³ tomonidan tadqiq qilingan.

Mamlakatimizda turizm xizmatlari samaradorligi, sifatini oshirish va diversifikatsiya qilish muammolarining tadqiqoti bilan N.Tuxliyev, I.S.Tuxliyev,

³ Durovich A.P., Marketingovie issledovaniya v turizme: Ucheb.posobiye. – SPb.: Piter, 2008. Kotler F., Bouen Dj., Meykens Dj. Marketing. Gostepriimstvo i turizm. / Per. sangl. – M.: YUNITI, 1998. Dwyer, P. Forsyth, A.Papateodorou. Economics of Tourism published by Goodfellow Publishers Limited Wood Eaton, Oxford, OX3 9TJ. Publishers Ltd 2011; Uoker Dj. Vvedeniye v gostepriimstvo. Ucheb. Posobiye / Per. sangl. – M.: YUNITI, 1999. Xodorkov L.F. Mirovoye gostinichnoye xozyaystvo. – M.: 1991, Bogolyubov V.S. Ekonomika turizma. – M., Akademiya-2005.-300 s.; Gulyayev V.G. Turizm: ekonomika upravleniya, ustoychivoye razvitiye: ucheb. - M.: Sovetskiy sport, 2008- 279 c.; Kuskov A.S., Djaladyan Yu.A. Turistskiy biznes: slovar-spravochnik. – M.: FORUM, 2011, Kuskov A.S., Djaladyan Yu.A. Osnovi turizma. – M.: Kno-Rus, 2008. Michelli Dj.A. Rits-Carlton: zolotoy standart gostinichnogo biznesa novogo tisyachaletiya / Djozef Michelli: per.sangl. V.S.Ivashenko. – M.: Eksmo, 2009. – 320 s., Volkov Yu.F. Gostinichniy i turisticheskiy biznes. – Rostov n/D: Feniks, 2009. – 637 s., Turizm i gostinichnoye xozyaystvo / Pod red. A.D. Chudnovskogo. – M.: Eksmo, 2000. Kuldoshina N.M. Ekonomika i finansi gostinichnogo biznesa. – M.: MATGR, 2000, Braymer A. Osnovi upravleniya predpriyatiyami i organizatsiyami industrii gostepriimstvo. – M.: 1994, Organizatsiya i upravleniye gostinichnim biznesom. / Pod red. A.L.Lesnika, I.P.Matsitskogo, A.V.Chernisheva – M.: 2000, Saak A.E., Yakimenko M.V. Menejment v industrii gostepriimstva (gostinitsi i restorani). – SPb.: Piter, 2007. – 432 s., Birjakov M.B., Nikiforov V.I. Industriya turizma: perevozki. – SPb.: Nevskiy Fond-Gerda, 2007., Bistrov S.A., Voronsov M.G. Turizm: makroekonomika i mikroekonomika. – SPb.: Nevskiy Fond-Gerda, 2007., Kosolapov A.B. Teoriya i praktika ekologicheskogo turizma. – M.: 2005., Kvartalnov V.A. Teoriya i praktika turizma. – M.: Sovetskiy sport, 2004., Kaurova A.D. Organizatsiya sferi turizma. – SPb.: Nevskiy Fond-Gerda, 2005., Turizm i gostinichnoye xozyaystvo / Pod red. L.P.Shmatko. – Rostov n/D: Feniks; Izdatelskiy sentr «Mart», 2010. – 352 s., Fedsov V.G. Kultura gostinichno-turistskogo servisa. – Rostov n/D: Feniks, 2008. 503 s., www.rej.ru, www.hrs.ru. www.reksoft.ru., www.HotelConcultingGroup.ru, www.allstarshilton.com.

M.E.Po‘latov, M.Q.Pardayev, G‘.H.Qudratov, Q.J.Mirzayev, B.Ro‘zimetov, M.M.Muhammedov, D.X.Aslanova, N.B.Navruz-Zoda, A.Eshtayev, B.X.To‘rayev, M.R.Usmonov, D.K.Usmanova, A.Norchayev, T.Abdullayeva, M.T.Alimova, B.Sh.Safarov, M.T.Aliyeva, O.H.Hamidov, A.N.Xalikulov, Sh.A.Sultanov, E.Shavqiyev, A.Xudoyarov kabi⁴ olimlar shug‘ullanmoqdalar.

Ushbu iqtisodchi olimlar ilmiy izlanishlarida turizm bozorini diversifikatsiya qilishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish yo‘llari ilmiy-nazariy hamda metodologik jihatdan etarli darajada yoritib berilmagan. Ushbu holat dissertatsiya mavzusini tanlash va tadqiqot maqsadi hamda vazifalarini belgilab olish uchun asos bo‘ladi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand iqtisodiyot va servis institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Innovatsion iqtisodiyot sharoitida xizmat ko‘rsatish sohasi tarmoqlarini rivojlantirishning nazariy va amaliy muammolari” mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi innovatsion iqtisodiyotga o‘tish sharoitida turizm bozorini diversifikatsiya qilishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

⁴Tuxliyev N., Abdullayeva T. Ekologicheskiy turizm: sushnost, tendensiya i strategiya razvitiya. «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Toshkent – 2006. – 415 str., Tuxliyev N., Abdullayeva T. Menjment i organizatsiya biznesa v turizme O‘zbekistana «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Toshkent – 2006. – 367 str., Tuxliyev N., Abdullayeva T. Osnovi bezopasnosti v turizme. «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Toshkent – 2008. – 503 str. Tuxliyev I.S., R.Hayitboyev, B.Sh.Safarov, G.R.Tursunova. Turizm asoslari. Darslik. Toshkent: Fan va texnologiya, 2014., Tuxliyev I.S., Pardayev M.Q. va boshqalar. O‘zbekiston turistik rekreatsion salohiyatini rivojlantirishda mintaqaviy geoxborot tizimini shakllantirishning metodologik asoslari. Samarqand, “Turon nashr” nashriyoti, 2021. – 272 bet. Po‘latov M.E. va boshqalar. Global iqtisodiy rivojlanish (turizm iqtisodiyoti) //O‘quv qo‘llanma.T.: Fan va texnologiya, - 2018. 296 b.; Pardayev M.Q. va boshqalar. Ekologik turizm asoslari. T: “Navro‘z” nashriyoti, 2015. – 96 b. Pardayev M.Q., Ataboyev R. Turizm asoslari. Samarqand, SamISI – 2006. – 78 b., 2009., Pardayev M.Q. va boshq. Turfirmalar moliyaviy xo‘jalik faoliyati tahlili. Ma‘ruzalar kursi. Samarqand, 2011. – 212 bet., Muhammedov M.M. va boshqalar. Xizmat ko‘rsatish sohasi va turizmni rivojlantirishning nazariy asoslari // - S.: Zarafshon 2007. 299 b.; Usmanova D.K. Osobennosti formirovaniya turistskogo produkta i perspektivnie napravleniya yego razvitiya // Iqtisod fan. nomzodi dis. avtoreferati. – Samarqand, SamISI, 2009. 25 b.; Norchayev A.N. Xalkaro turizm rivojlantirishning iqtisodiy o‘shig‘a ta‘siri // Nomzodlik dissertatsiyasi. TDIU, 2004 y. 120 b.; Turayev B.X. Razvitiye organizatsionno-ekonomicheskix mexanizmov funkcionirovaniya regionalnogo turizma // -dok. diss. avtoref., 2011. 38 s.; Hamidov O.H. O‘zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirishni boshqarishni takomillashtirish: muammo va yechimlar // Monografiya. – T.:Iqtisodiyot, 2016. 203 b.; Aliyeva M.T., Umarjonova A. Turistik mamlakatlar iqtisodiyoti. Toshkent, Moliya. 2005.– 339 b., Usmonov M.R. O‘zbekistonda turizmni rivojlantirishning mintaqaviy xususiyatlari (Samarqand viloyati misolida). Geografiya fan. nomzodi dis. avtoref. T.: O‘zMU, 2003. – 25 b., Mirzayev Q.J. Mehmonxona xo‘jaligi menejmenti. – Samarqand, SamISI, 2010. – 96 bet., Ro‘zimetov B. Strategiya ustoychivogo razvitiya turizma v Xorezmskoy oblasti. // Aktualnie problemi turizma – 2009. Toshkent. – 135 –137 str., D.X.Aslanova, M.T.Alimova, Z.I.Sattarova Regionalniy turisticheskij klaster: sushnosit i problemi yego effektivnogo fukcionirovaniya. – Samarkand, «Zarafshon», 2017. - 232 c., D.X.Aslanova, M.T.Alimova, Z.I.Sattarova. Samarqand viloyatida hududiy turistik klasteri shakllantirish konsepsiyasi. . – Samarkand, «Zarafshon», 2016. - 76 bet., Eshtayev A.A. O‘zbekistonning turizm salohiyati va uni rivojlantirish istiqbollari. Monografiya.. – Samarqand “Ipak yo‘li” TXU nashriyoti, 2023. – 288 bet. Alimova M.T. Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari (Samarqand viloyati misolida). Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. Samarqand, 2017. – 95 bet., Safarov B.Sh. Milliy turizm xizmatlari bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik-uslubiy asoslarini takomillashtirish. Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. Samarqand, 2017. – 80 bet., Hamidov O.H. O‘zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirishni boshqarish mexanizmini takomillashtirish. Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. Samarqand, 2017. – 68 bet.,Sultanov Sh.A., Shavqiyev E., Usmanov Z.B. Turizm va mehmonxona xizmatlari iqtisodiyoti. – T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2021. – 386 bet.,Xudoyarov A. O‘zbekistonda ziyorat turizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari. Monografiya. – T.: OOO “Complex print” nashriyoti, 2021. – 304 bet.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

innovatsion iqtisodiyot sharoitida bozor va diversifikatsiya tushunchalarining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni va turlarini nazariy jihatdan o'rganish;

turizm bozorining mamlakat iqtisodiyotidagi tutgan o'rni va diversifikatsiya qilishning obektiv zarurligini ochib berish;

turizm bozorining o'ziga xos xususiyatlari va uni yanada rivojlantirish masalalarining taqqoslama tahlilini amalga oshirish;

turizm bozorida turizm xizmatlarining o'rni, ularning turlari va funksiyalarining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni hamda mohiyatini ochib berish;

turizm bozorini diversifikatsiya qilish natijasida paydo bo'lgan turizm bozorining asosiy segmentlari va unga ta'sir qiluvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillarni tahlil qilish;

innovatsion iqtisodiyot sharoitida turizm infratuzilmasini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish;

turizm bozorini diversifikatsiya qilishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari va ularning o'zaro bog'liqligini aks ettirish;

turizm bozori infratuzilmasini diversifikatsiya qilish va turistik firmalar samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qilish;

innovatsion iqtisodiyot sharoitida turizm bozorining rivojlanish istiqbollari belgilash.

Tadqiqotning obekti sifatida Samarqand viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan turistik firmalar, mehmonxona xo'jaliklari va boshqa turistik bozorlar infratuzilmasi subektlari olingan.

Tadqiqotning predmeti turizm bozorini diversifikatsiya qilishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar majmui hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada analiz va sintez, induksiya va deduksiya, tizimli tahlil, iqtisodiy-matematik va statistik tahlil hamda sotsiologik so'rovnomalar, pronozlash kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

qishloq hududlarida ekologik turizm tarkibida yaylov turizmiga gastronomik va hunarmandchilik turizmni qo'shib diversifikatsiya qilish natijasida turistik infratuzilmani takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;

turizm xizmatlari ko'rsatuvchi turistik firmalarning samaradorligi bilan o'zaro funksional bog'liq bo'lgan beshta omillar ta'sirini hisoblash va tahlil qilish natijasida boshqaruv qarorlarini qabul qilish mexanizmlari takomillashtirilgan;

Samarqand viloyati hududida reklama targ'ibot xizmatlarini takomillashtirish va obyektlarni diversifikatsiya qilishga qaratilgan "3T-FI modeli" ishlab chiqilgan;

turizm bozorini diversifikatsiya qilish natijasida turizm xizmatlarini rivojlantirishning strategik yo'nalishlari va ularning 2024-2028 yillarga mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

"turizm", "bozor", "turizm bozori", "turizm xizmatlari bozori", "diversifikatsiya", "turizm bozori diversifikatsiyasi" tushunchalarining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini nazariy jihatdan takomillashtirilgan;

qishloq hududlariga turizm bozorida tegishli infratuzilmalarni yaratish va hunarmandchilik turizmini namoyish qilish imkoniyatlaridan foydalanish yo‘llari ko‘rsatib berilgan;

mahalliy turizm bozori diversifikatsiyasini ta‘minlash maqsadida ma‘lumotlarni sohaga oid davlat va nodavlat veb-saytlariga joylashtirib borish va unda jozibador joylar, jarayonlar va milliy urf-odatlar, kiyimlarni video rolik tarzida nomoyish etish hamda innovatsion texnologiyarlardan samarali foydalanish taklifi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda qo‘llanilgan uslubiy yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma‘lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, xulosa, taklif va tavsiyalar aprobatsiyadan o‘tkazilganligi, muayyan ilmiy natijalar amaliyotga joriy qilinib, ularning tegishli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan xulosa va tavsiyalar turizm bozorini diversifikatsiya qilishning uslubiy asoslari hamda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishga, mavzu yo‘nalishidagi ilmiy loyihalarning nazariy asoslarini boyitishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishda asoslangan taklif va tavsiyalar sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlar, chora-tadbirlar dasturi va maqsadli kompleks tadbirlarni ishlab chiqishda hamda mavzuga oid o‘quv adabiyotlarini tayyorlashga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi turizm bozorini diversifikatsiya qilishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

qishloq hududlarida ekologik turizm tarkibida yaylov turizmiga gastronomik va hunarmandchilik turizmni qo‘shib diversifikatsiya qilish natijasida turistik infratuzilmani takomillashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan tavsiyalar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 30 iyunida tasdiqlangan 450-son qarori asosida ishlab chiqilgan “2017-2019 yillarda Samarqand shahri va Samarqand viloyatining turizm salohiyatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari dasturida foydalanilgan (Samarqand viloyati hokimligining 2018 yil 2 oktyabrdagi 06-06/1780-sonli ma‘lumotnomasi va O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi turizm Qo‘mitasi tomonidan taqdim qilingan 2024 yil 2 fevraldagi №03-9/118 sonli ma‘lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi qishloq hududlariga turizm bozorini diversifikatsiya qilishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishning yo‘nalishlaridan biri sifatida ichki va kiruvchi turistlar uchun ekologik turizmning yaylov turizmini joriy qilib, unda tegishli infratuzilmalarni yaratish va bevosita shu joyning o‘zida dalada pishiriladigan milliy taomlarni tayyorlash texnologiyasini ko‘rsatgan holda, milliy gastronomik turizmni ham namoyish qilish yo‘llari va hunarmandchilik turizmini namoyish qilish imkoniyatlaridan foydalangan holda turistlarga milliy hunarmandchilikning qo‘lda gilam, gazlama to‘qish, bo‘yoqli naqshlar tayyorlash, milliy liboslar tayyorlash,

yogʻoch oʻymakorligi, kashatachilik, zardoʻzlik, qimmatli metallardan zargarlik buyumlarini yasash kabi turlaridan foydalanish imkonini beradi;

turistik xizmatlar koʻrsatuvchi turistik firmalarning samaradorligi bilan oʻzaro funksional bogʻliq boʻlgan 5 ta omillar taʼsirini hisoblash va tahlil qilish natijasida boshqaruv qarorlarini qabul qilish mexanizmlarini takomillashtirish boʻyicha ishlab chiqilgan taklif Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 30 iyunida tasdiqlangan 450-son qarori asosida ishlab chiqilgan “2017-2019 yillarda Samarqand shahri va Samarqand viloyatining turizm salohiyatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari dasturida foydalanilgan (Samarqand viloyati hokimligining 2018 yil 2 oktyabrdagi 06-06/1780-sonli maʼlumotnomasi va Oʻzbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi huzuridagi turizm Qoʻmitasi tomonidan taqdim qilingan 2024 yil 2 fevraldagi №03-9/118 sonli maʼlumotnomasi). Mazkur tavsiyaning amaliyotda qoʻllanilishi turizm bozorini diversifikatsiya qilishning ichki imkoniyatlarini aniqlash va ulardan samarali foydalanish chora-tadbirlarini ishlab chiqish imkoniyatini yaratadi;

Samarqand viloyati hududida reklama targʻibot xizmatlarini takomillashtirish va obektlarni diversifikatsiya qilishga qaratilgan “3T-FI modeli”dan foydalanish boʻyicha ishlab chiqilgan tavsiyalar Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 30 iyunida tasdiqlangan 450-son qarori asosida ishlab chiqilgan “2017-2019 yillarda Samarqand shahri va Samarqand viloyatining turizm salohiyatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari dasturida foydalanilgan (Samarqand viloyati hokimligining 2018 yil 2 oktyabrdagi 06-06/1780-sonli maʼlumotnomasi va Oʻzbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi huzuridagi turizm Qoʻmitasi tomonidan taqdim qilingan 2024 yil 2 fevraldagi №03-9/118 sonli maʼlumotnomasi). Aynan Samarqand viloyatining har bir tumanlari boʻyicha alohida tarzda ulardagi mavjud barcha ichki turistik salohiyatlarni shuningdek, turistlar diqqatini jalb qilishi mumkin boʻlgan hududdagi barcha ichki salohiyatlarini oʻzida aks ettiruvchi videoroliklarni ishlab chiqish yoʻlga qoʻyilgan;

turizm bozorini diversifikatsiya qilish natijasida turistik xizmatlarni rivojlantirishning strategik yoʻnalishlari va ularning 2024-2028-yillarga moʻljallangan prognoz koʻrsatkichlari ishlab chiqilgan va Oʻzbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi huzuridagi turizm Qoʻmitasi tomonidan amaliyotga tadbirgʻi belgilab berilgan. (2024-yil 2-fevraldagi №03-9/118 sonli maʼlumotnomasi).

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 23 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida aprobatsiyadan oʻtkazilgan.

Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusida jami 65 ta ilmiy ish, jumladan Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan eʼtirof etgan jurnallarda 11 ta maqola, jumladan 7 ta maqola respublika va 4 ta maqola xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 144 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, usullari, respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, mavzuning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi, ilmiy yangiligi, ilmiy va amaliy natijasi, ularning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, uning hajmi va tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Innovatsion iqtisodiyot sharoitida turizm bozorini diversifikatsiya qilishning nazariy asoslari”**ga bag‘ishlangan. Bunda innovatsion iqtisodiyot sharoitida bozor va diversifikatsiya tushunchalarining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni va turlari, turizm bozorining mamlakat iqtisodiyotidagi tutgan o‘rni va diversifikatsiya qilishning ob‘ektiv zarurligi, turizm bozorini diversifikatsiya qilishning o‘ziga xos xususiyatlari va uni yanada rivojlantirish masalalari qarab chiqilgan. Tadqiqot natijasida **“Bozor”, “Turizm”, “Turizm bozori”, “Turizm xizmatlar bozori”, “Diversifikatsiya”, “Turizm bozorini diversifikatsiyasi”** tushunchalarining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati nazariy jihatdan mamlakatimiz va xorijiy olimlarning qarashlarini tadqiq qilib, ularning takomillashgan ta’riflari ishlab chiqilgan.

1-jadval

“Bozor”, “Turizm”, “Turizm bozori”, “Turizm xizmatlar bozori”, “Diversifikatsiya”, “Turizm bozorini diversifikatsiyasi” tushunchalarining takomillashtirilgan ta’riflari⁵

Iqtisodiy tushunchalar	Takomillashgan ta’riflari
Bozor deganda	talab va taklif qonuniga bo‘ysunuvchi turli tovarlar (xizmatlar, ishlar) ishlab chiqaruvchi (xizmat ko‘rsatuvchi, ish bajaruvchi) bilan iste‘molchilar (foydalanuvchilar), ya‘ni sotuvchilar bilan xaridorlar o‘rtasidagi o‘zaro ayirboshlash jarayonini ifodalovchi iqtisodiy munosabatlar majmui tushuniladi.
Turizm deganda	dam olish, ta‘lim, ko‘ngilochar yoki biznes uchun turli joylarga sayohat qilish bilan bog‘liq faoliyatdir. Turizm tabiatning diqqatga sazovor joylari, tarixiy yodgorliklari, madaniy tadbirlarni ziyorat qilish, shuningdek, piyoda sayohatlar, ekskursiyalar va boshqa dam olish ko‘rinishidagi turli tadbirlarda ishtirok etish.
Turizm bozori deganda	turistik mahsulotlarni (xizmatlarni) ishlab chiqaruvchi (xizmat ko‘rsatuvchilari) va iste‘molchilari (foydalanuvchilari) o‘rtasidagi oldi-sotdi (xizmat ko‘rsatish, ish bajarish) jarayonlarda talab va taklif elementlari bir-biri bilan mos kelgan holda, hamda belgilangan qonun doirasidan chiqmasdan, ushbu turistik mahsulotlar (xizmatlar)ning savdosidagi iqtisodiy munosabatlarning majmui tushuniladi
Turizm xizmatlari bozori deganda	o‘ziga xos turizm xizmatlari va mahsulotlariga (turlarga) bo‘lgan talab va taklifning uyg‘unligini ta‘minlagan holda ma‘lum bir vaqtda va ma‘lum bir joyda, ya‘ni turizm xizmatlari ko‘rsatiladigan va mahsulotlar ishlab chiqariladigan joyda oldi-sotdi (xizmat ko‘rsatish) jarayonini amalga oshiradigan ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar tushuniladi.
Diversifikatsiya deganda	katta foyda olish yoki xatar darajasini pasaytirish maqsadida korxonada, tashkilot faoliyatini kengaytirish, ularning turlarini ko‘paytirish tushuniladi.
Turizm bozorini diversifikatsiya qilish deganda	ko‘proq turistlarni jalb qilish va ularni bir qancha yo‘nalishlar bo‘yicha taklif etilayotgan turistik mahsulot va xizmatlar turlarini kengaytirishga qaratilgan hamda turistik faoliyat bilan shug‘ullanuvchi subyektlar xavfsizligini ta‘minlashga asoslangan tadbirlar majmui tushuniladi.

⁵ Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan

Turistlarning turmahsulotlar xarid qilishidagi har xil qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda turmahsulotlarga bo‘lgan talab bozorini salohiyatli bozor, imkoniyatli bozor va xizmat ko‘rsatuvchi bozorga ajratish zarurati yoritildi.



1-rasm. Turmahsulotlarga bo‘lgan talab bozori⁶

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zaruratidan kelib chiqib, ishda innovatsion iqtisodiyot sharoitida turizm bozorini diversifikatsiya qilishning yanada takomillashtirilgan turlari keltirib o‘tildi.




2-rasm. Turizm bozorini diversifikatsiya qilishning asosiy turlari⁷

Turizm sohasida bandlik masalasini tahlil qilish uchun ishga qobiliyatli jami aholi (I_{ka}), texnikumlarda (kasb-hunar kollejarida) turizm sohasi bo‘yicha bitirgan mutaxassislar (K_{xkm}) va oliy ma‘lumotli turizm sohasiga oid mutaxassislar (O_{tm}) bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar kerak bo‘ladi.

⁶ Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan

⁷ Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan



3-rasm. Samarqand viloyatida turizmda bandlik darajasining 2013-2023 yillar mobaynidagi qiyosiy tahlili⁸

Tahlil qilish jarayonida esa, omillarning bandlik darajasiga qanchalik ta'sir qilganligini hisoblashimizga to'g'ri keladi. Buning uchun esa avvalo turizm sohasida ish bilan band aholining umumiy band aholi tarkibidagi hissasini aniqlash lozim bo'ladi. Buning uchun quyidagi formuladan foydalanish tavsiya etiladi:

$$T_{ibbd} = \frac{T_{ba}}{Iqja};$$

Bunda: T_{ibbd} – turizm sohasidagi aholining ish bilan ta'minlanganlik darajasi (Q);

T_{ba} – turizmda ish bilan band aholi;

$Iqja$ – ishga qobiliyatli jami aholi.

Ushbu formuladan foydalanib, turizmda bandlik darajasiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlab olamiz. Bunday omillarga quyidagilar kiradi:

turizm sohasida diversifikatsiya natijasida yaratigan yangi ish o'rinlariga to'g'ri keladigan turizm sohasida band bo'lgan aholining soni (A);

turizm sohasidagi oliy ma'lumotli kadrlarga ushbu sohani diversifikatsiya qilish natijasida yaratigan yangi ish o'rinlariga to'g'ri kelganlik darajasi (B);

turizm sohasida o'rta ma'lumotli band bo'lgan aholining ushbu sohani diversifikatsiya qilish natijasida yaratigan yangi ish o'rinlariga to'g'ri kelganlik darajasi (V);


ishga qobiliyatli jami aholining tarkibida turizm sohasi bo'yicha band bo'lgan aholi soni (G).

Ushbu omillarning natija ko'rsatkichi bo'lgan turizm sohasidagi aholining ish bilan ta'minlanganlik darajasi bilan bog'liqligi quyidagi formula orqali ifodalanadi:

$$Q = A * B * V * G$$

2010-2023 yillar davomidagi Samarqand viloyatiga tashrif buyurgan xorijiy turistlarning jami turistlardagi ulushining o'zgarish tendensiyasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, pandemiyadan keyingi 2020-2021 yillar davrida ko'rsatkich hissasi ancha pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan. 2023 yilda esa 2021 yilga nisbatan 26,5 % ga o'sish tendensiyasiga erishilgan.

⁸ Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan



4-rasm. Samarqand viloyatiga tashrif buyurgan xorijiy turistlar ulushi dinamikasi⁹

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizning har qanday hududidan, xususan viloyatimizda ham imkoniyatlar axtarilsa, ularning juda ko‘pligi va kattaligiga ishonch hosil qilish mumkin. Ularni ishga solib, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun bir qancha qo‘shimcha manbalarga ham ega bo‘lishi mumkin ekan.

Ishning ikkinchi bobida **“Turizm bozorini diversifikatsiya qilish va turizm bozorining rivojlanishiga ta’sir qiluvchi omillar tahlili”** qarab chiqilgan. Ushbu bobda turizm bozorida turizm xizmatlarining o‘rni, ularning turlari va funksiyalarining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni hamda mohiyati, turizm bozorini diversifikatsiya qilish natijasida paydo bo‘lgan turizm bozorining asosiy segmentlari va unga ta’sir qiluvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillar, hamda innovatsion iqtisodiyot sharoitida turizm infratuzilmasini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari keltirib o‘tilgan. Turizm bozorini diversifikatsiya qilish bo‘yicha bobga doir xulosalar qilingan. Turizm bozori turistik mahsulotlar va xizmatlarni ayriboshlashda ham turistlar va tur mahsulot egalari bilan bo‘lgan munosabatda faol qatnashadi. Bu bilan ular iqtisodiyotning ayriboshlash bosqichida ishtirok etadi. Va, nihoyat, turizm bozori tur mahsulotlar va xizmatlar iste’molida ham faol ishtirok etadi. Ularning iste’moli turizm bozori orqali sotilsagina amalga oshiriladi. Turizm bozorining bu jihatlari uning kengaytirilgan takror ishlab chiqarishda ishtiroki va o‘rni belgilaydi.




5-rasm. Turizm bozorida turizm xizmatlarining o‘rni¹⁰

⁹ Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan

¹⁰ Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan

2023 yilning yanvar-dekabr oylarida xorijiy sayyohlarning O‘zbekistonga tashrifi maqsadlari turli xil bo‘lgan. Quyida keltirilgan diagramma ma’lumotlari shuni ko‘rsatmoqdaki, 2023 yilning yanvar-dekabr oylarida O‘zbekistonga tashrif buyurgan xorijiy sayyohlardan 16,8 ming kishi ta’lim olish maqsadida, 61,3 ming kishi davolanish maqsadida, 70,4 ming kishi tijorat maqsadida, 143,5 ming kishi xizmat safari maqsadida, 773,3 ming kishi dam olish maqsadida va 5561,1 ming kishi qarindoshlarni yo‘qlash maqsadida tashrif buyurgan.




1-diagramma. 2023 yilda O‘zbekiston Respublikasiga tashrif buyurgan xorijiy sayohlar (2023 yilning yanvar-dekabr oylari)¹¹

2022 yilning mos davri bilan solishtiradigan bo‘lsak, 2023 yilda qarindoshlarni yo‘qlash maqsadida xorijiy turistlarning tashrifi 19,4 % ga, xizmat safari maqsadida tashrif 71,3% ga, ta’lim olish maqsadidagi tashrif 91,5 ga, dam olish maqsadidagi tashrif 97,2% ga va davolanish maqsadidagi tashrif ko‘rsatkichi 3,4 martaga oshgan. Bular tarkibida faqatgina tijorat maqsadidagi tashrif ko‘rsatkichi 12,5% ga kamaygan.

Turizmni barqaror rivojlantirish dasturini amalga oshirish maqsadida olib borilgan tadqiqotlar natijasida Samarqand viloyati hududida reklama targ‘ibot xizmatlarini takomillashtirish va obyektlarni diversifikatsiya qilishga qaratilgan “3T-FI modeli” ishlab chiqilgan. Ushbu yo‘nalish bo‘yicha turizm sohasini reklama va diversifikatsiya qilish natijasida aholining ish bilan ta’minlanganlik darajasini oshirish imkoniyati yaratildi.


“3T-FI modeli”ning mazmuni quyidagilardan iborat. Bu o‘z ichiga targ‘ibot (T), tashabbuskorlik (T), tadbirkorlikni (T) qamrab oladi. Bularning jamlanishi natijasida ushbu imkoniyatlardan (I) foydalanuvchilar (F) va iste’molchilar (I) manfaatdor bo‘ladi. Ushbu elementlarning o‘zaro bog‘liqligi quyidagi rasmda keltirilgan (6-rasm).

¹¹ Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan



6-rasm. “3T-FI modeli” elementlarining o‘zaro bog‘liqliklari¹²

Dissertatsiyada turizm bozorini diversifikatsiya qilishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida ichki va kiruvchi turistlar uchun qishloq hududlarida ekologik turizmning tarkibida yaylov turizmiga gastronomik va hunarmandchilik turizmni qo‘shib diversifikatsiya qilish natijasida turistik infratuzilmani takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan. Bu quyidagi rasmda keltirilgan (7-rasm).



7-rasm. Ekologik turizmning tarkibida yaylov turizmiga gastronomik va hunarmandchilik turizmni qo‘shib diversifikatsiya qilish modeli¹³


Mazkur rasmda ko‘rsatilgan model asosida turizmni diversifikatsiya qilishning imkoniyatlari ochib berilgan. Jumladan, Urgut tumanidagi ekologik hududlarida tashkil qilingan yaylov turizmidagi gastronomik va hunarmandchilik turizmidan tashqari yana rekreatsion turizm, diniy turizm, tarixiy arxeologik obidalar turizmi, Urgut bozorini, hunarmandchilik markazlarini o‘z ichiga qamrab oladigan keng ko‘lamli diversifikatsiya qilingan turmarshrutlar ham tavsiya qilindi.

Tadqiqotning uchinchi bobi **“Innovatsion iqtisodiyot sharoitida turizm bozorini diversifikatsiya qilishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish yo‘llari”**ga bag‘ishlangan. Mazkur bobda turizm bozorini diversifikatsiya qilishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari va ularning o‘zaro bog‘liqligi, turizm bozori infratuzilmasini diversifikatsiya qilish va turistik firmalar samaradorligiga ta’sir qiluvchi omillar tahlili va innovatsion iqtisodiyot sharoitida turizm bozorini diversifikatsiya qilishning istiqbolli yo‘nalishlari qarab chiqilgan.

¹² Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan

¹³ Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan

Turizm bozorini diversifikatsiya qilish va uning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish uchun birinchi galda uning turizm bozorini diversifikatsiya qilishga qaratilgan mexanizmini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Turizm bozorini diversifikatsiya qilishda qo'llaniladigan mexanizmlar xilma-xilligi jihatidan ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlar ularning turli yo'nalishlarida, ya'ni iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy kabilarda namoyon bo'ladi. Bularning o'zaro bog'liqligi quyidagi rasmda keltirilgan (8-rasm).



8-rasm. Turizm bozorini diversifikatsiya qilish mexanizmlari¹⁴

Diversifikatsiyaning ayrim kamchililari ham kuzatiladi. Bularga: diversifikatsiya qilishda muvaffaqiyatga erishish uchun keng masshtabli hudud bo'lishi lozimligi; yangi turdagi mahsulotni ishlab chiqarish jarayonini samarali boshqarish uchun ishchilarda yetarli darajada bilim va ko'nikmalarning yetishmasligi; yangi texnologiyalar uchun investitsiyalar yetarli darajada bo'lishligi; va nihoyat, diversifikatsiya jarayoni asosan o'sish strategiyasi bo'lganligi uchun bunda foydani olishda ma'lum vaqt o'tishini talab qiladi. Shuning uchun korxonaning imkoniyatlarini va paydo bo'lishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni hamda diversifikatsiya qilishga tayyorligini baholash uchun mustaqil ekspertlar xizmatidan ham foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda turizm bozorini diversifikatsiya qilishning ijobiy va salbiy tomonlariga tashxis ham qo'yish mumkin. Chunki sodir bo'layotgan barcha hodisa va jarayonlarda ijobiy jihatlari bilan birga salbiy tomonlari ham ko'zga tashlanadi. Bunday qonuniyatdan turizm bozori diversifikatsiyasi ham xoli emas. Buni quyidagi jadvalda ko'rish mumkin (2-jadval).

Shuni alohida qayd etish joizki, diversifikatsiyalash jarayoni deganda bir xizmat turini boshqa turdagi xizmat bilan almashtirish deb tushunish noto'g'ri bo'ladi. Masalan, turistik firma yoki mehmonxonada ko'rsatilayotgan ma'lum bir turdagi xizmatni umuman olib tashlab uning o'rniga yangi turdagi xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yish bu diversifikatsiya qilishni bildirmaydi.

¹⁴ Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan

Turizm bozorini diversifikatsiya qilishning ijobiy va salbiy tomonlari¹⁵

Diversifikatsiyaning ijobiy tomonlari	Diversifikatsiyaning salbiy tomonlari
Inqiroz paytida korxonaning moliyaviy barqarorlikni saqlab tura olishi	Turli xildagi faoliyat yo'nalishlarini rejalashtirishda va moliyalashtirishda ayrim muammolarning yuzaga kelishi
Yangi turdagi faoliyatlarga investitsiya kiritish maqsadida yo'nalishlar bo'yicha mavjud pul mablag'larini samarali taqsimlay olishdagi imkoniyatlarning yuzaga kelishi.	Bir-biri bilan bog'liq bo'lmagan tadbirkorlik yo'nalishlarini to'g'ri yetarlicha boshqara olmaslik
Yangi turdagi, kengaytirilgan xizmatlarni taklif qila olish bilan bog'liq imkoniyatlarning paydo bo'lishi	Zarar bilan ishlayotgan korxonalar faoliyatiga investitsiyalarni kiritish oqibatida turli xildagi yo'qotishlarning kelib chiqishi va buning natijasida korxonada foydasining kamayish holati yuz berishi
Turli xildagi korxonalar va tashkilotlardan qarzlarni qaytarib olish imkoniyatining paydo bo'lishi ishlarini markazlashtirishdagi qiyinchiliklarning yuzaga kelishi	Turli xildagi tadbirkorlik yo'nalishlari o'rtasida sodir bo'ladigan jarayonlar va hisob-kitob ishlari

Agarda turistik firma yoki mehmonxona shahar joylarda joylashgan bo'lib, o'zining filialini qishloq joylarida ochishi va talabdan kelib chiqqan holda turizm xizmatlarini shakllantirishi diversifikatsiyaning joriy qilinganligidan dalolat beradi.

Tadqiqotlar natijasida turizm bozorini diversifikatsiya qilish orqali ma'lum hududdagi turizm xizmatlari ko'rsatuvchi turistik firmalarning samaradorligi bilan o'zaro funksional bog'liq bo'lgan 5 ta omillar ta'sirini hisoblash va tahlil qilib, tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qilish mexanizmlari takomillashtirilgan.

Tadqiqotlar ko'rsatdiki, turizm bozorini diversifikatsiya qilishning turizm xizmatlari samaradorligining (W) o'zgarishiga ta'sir qiluvchi o'zaro funksional bog'liq bo'lgan omillar quyidagilardan iborat:

kiruvchi turistlarga to'g'ri keladigan umumiy tushum (K);

kiruvchi turistlarning ichki turizmdagi ulushi (R);

ichki turistlarning ichki bozorda ishtirok etgan bitta turistik firmalarga to'g'ri kelishi (S);

ichki bozordagi turistik firmalarning xorijiy bozorda ishtirok etayotgan turistik firmalardagi hissasi (B);

xorijiy bozorda ishtirok etayotgan turistik firmalarning barcha turistik firmalardagi ulushi (U).

Natija ko'rsatkichi bilan ushbu omillarning o'zaro bog'liqligini ifodalash uchun quyidagi multiplikativ modeldan foydalanishni tavsiya qilamiz:

$$W = K * R * S * B * U$$

¹⁵ Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan

